

TURIZM HUDUDLARINI TANLASH USULLARI BO'YICHA BAZAVIY OBYEKTLARNI SXEMA KO'RINISHIDA ANIQLASH

Xoliqova Manzura Qoyirovna

"Muxandislik grafikasi va raqamli texnologiyalar" kafedrasi assistenti, TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7294934>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasi uchun turizm hududlarini tanlash, usullari bo'yicha bazaviy ob'yektlarni sxema ko'rinishda aniqlash ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyasining qo'llanilishi sayyoqlik xizmatlarining sifati va xafvsizligini oshirish bo'yicha alohida ma'lumotlar keltirilgan. Sayyoqlik jarayonlarida turizm hududlarini aniqlash turli usullarining asosiy kamchiliklari va ularni optimal qo'llash sohalariga doir jadval algoritmi va tuzilgan.

Kalit so'zlar: turizm, jarayon, algoritm, baholash, obyekt, hudud, koeffisiyent, konseptual, model, matematik model, yarim qiymat, axborot.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОСНОВНЫХ ОБЪЕКТОВ НА СХЕМЕ СПОСОБОВ ВЫБОРА ТУРИСТСКИХ ТЕРРИТОРИЙ

Аннотация. В данной статье показаны выбор туристских направлений для индустрии туризма, методы определения основных объектов в виде схемы. Кроме того, приводится специальная информация об использовании современных информационных технологий для повышения качества и безопасности туристических услуг. По алгоритму составлена таблица основных недостатков различных методов выделения направлений туризма в туристских процессах и направлений их оптимального применения.

Ключевые слова: туризм, процесс, алгоритм, оценка, объект, площадь, коэффициент, понятийный, модель, математическая модель, получена, информация.

DETERMINATION OF BASIC FACILITIES IN SCHEME VIEW BY METHODS OF SELECTING TOURISM AREAS

Abstract. This article shows the selection of tourism areas for the tourism industry, the methods of determining the basic objects in the form of a scheme. In addition, special information on the use of modern information technology to increase the quality and safety of tourist services is provided. A table of the main shortcomings of various methods of identifying tourism areas in tourism processes and the areas of their optimal application is compiled by algorithm.

Keywords: tourism, process, algorithm, assessment, object, area, coefficient, conceptual, model, mathematical model, half value, information.

KIRISH


Sayyoqlik hududlari obyektlarining qiymatini baholashning maqsadli yo'nalishi va bunda turli yondashuvlar va usullardan foydalanish ushbu resurslar qiymatini aniqlashning turli bazaviy algoritmlari va matematik modellarini belgilab beradi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Sayyoqlik jarayonlari baholashning bazaviy algoritmlarining barcha xillarini, bizningcha, ikkita asosiy guruhgaga guruhlash mumkin (1.1-rasm).

1.1-rasm.

Sayyoqlik jarayonlarini baholashning bazaviy algoritmlarining asosiy guruhlari.



Quyidagi ifoda umumiyo ko'rinishda birinchi guruh algoritmlari uchun tur-hududlar salohiyatini baholashning matematik ta'minoti bo'ladi:

$$S_{uch.} = S_b * K_1 * K_2 * K_3 * \dots * K_n,$$

bu yerda:

$S_{uch.}$ – muayyan tu-hududning qiymati;

S_b – bazaviy sayyohlik jarayoni obyektining qiymati;


$K_1 * K_2 * K_3 * \dots * K_n$ – Sayyohlik jarayonlarini baholashda alohida ko'rsatkichlar bo'yicha tuzatuvchi koeffisientlar.

Yalpi baholash ishlarini o'tkazish sharoitida tur-hudud obyektlari qiymatini yakka tartibda baholashning bazaviy algoritmlarini ko'rib chiqayotib, yalpi baholash ishlarining yagona maqsadli yo'nalishi doirasida baholash ishlarini o'tkazishda foydalaniladigan yondashuvlari va usullarning yagonaligiga amal qilish zarurligini alohida ta'kidlash lozim.

Bunda turli maqsadlarga mo'ljallangan muayyan hududlar qiymat baholarining o'zaro bog'liqligini chuqurroq o'rghanish ob'ektiv tarzda tuzatuvchi koeffitsientlarning kengayuvchi tizimini shakllantirishga va undan yalpi qiymatni baholash sharoitida yakka tartibdagqi qiymat baholarini hisoblab chiqishda foydalanishga ko'maklashadi. Bu shuni anglatadiki, bazaviy qiymat bahoga nisbatan tuzatuvchi koeffitsientlarning oshishi uning kamayishiga xizmat qiladi. Tuzatuvchi koeffitsientlar miqdori va muayyan yer uchastkalari bazaviy qiymati o'zgarishining dinamikasi sxema ko'rinishida 1.2-rasmida aks ettirilgan.

1.2-rasm.

Turizm hududlarini bazaviy qiymati va tuzatuvchi qiymatining dinamikasi.



Shartli belgilar:

Turizm hududlarini umumiyo qiymatida bazaviy qiymat ulushi

Turizm hududlarini umumiyo qiymatida tuzatuvchi qiymat ulushi

TADQIQOT NATIJALARI

Sayyohlik jarayonlari tashkil etuvchi qiymatini baholash omillarining o‘zaro bog‘liqliklarini yanada o‘rganish natijasida shuni asosli tarzda ta’kidlash mumkinki, yer uchastkasining bazaviy qiymat bahosini shakllantirish yer uchastkalarining baholash guruhlari, ularning ixtisoslashuvi, ulardan foydalanishdan qat’i nazar yanada umumiyligini xususiyatga ega bo‘ladi. Shu bilan birga yer uchastkasining ushbu bazaviy qiymat bahosining pasayishi muayyan yer uchastkasining umumiyligini tuzatuvchi qiymat ulushining ortishi bilan kuzatiladi.

Bunda turizm hududlari yakka tartibdagi qiymat bahosini hisoblab chiqishning umumiyligini matematik ko‘rinishi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$R_{yakk.} = K^1 * K^2 * \dots * K^n * R_{baz.} * K_1 * K_2 * \dots * K_n,$$

bu yerda

K¹ * K² * ... * Kⁿ – baholash guruhlarining farqlarini hisobga oluvchi koeffitsientlar;

K₁ * K₂ * ... * K_n – turizm hududlarini baholash guruhida uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi koeffitsientlar;

R_{baz.} – qator baholash guruhlari yig‘indisining baholash jarayoniga kiritilgan hududning bazaviy qiymati.

Baholash ishlarini yoppasiga o‘tkazishda yer uchastkasining yakka tartibdagi qiymat bahosini aniqlashning yuqorida keltirilgan matematik modelining umumlashtiruvchi algoritmi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

I bosqich – tayyorgarlik ishlari, baholash ishlarini yoppasiga o‘tkazishda sayyohlik jarayonlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan yakka tartibdagi hududlarni baholashni o‘tkazish uchun zarur axborotni yig‘ish va unga ishlov berish;

II bosqich – yalpi qiymatni baholash bilan qamrab olingan hududni baholash zonalari va uchastkalariga taqsimlash;

III bosqich – Turizm hududlarining qiymatini shakllantiruvchi omillar tarkibini va baholash zonasini yoki baholash hududiga tatbiqan ushbu omillarning miqdoriy ko‘rsatkichlarini belgilash;

IV bosqich – har bir baholash guruhi uchun hudud qiymatini shakllantiruvchi har bir omilga tatbiqan ushbu resurslar nisbiy qiymatining guruhlararo va guruh ichi koeffitsientlarining qiymatlarini hisoblab chiqish;

V bosqich – tanlangan test tur-hududning bazaviy qiymatini aniqlash;

VI bosqich – yakka tartibdagi sayyohlik obyektlarining qiymatini test tur-hududlarning qiymati va ushbu yakka tartibdagi sayyohlik zonasini hududi nisbiy qiymatining maxsus ishlab chiqilgan tuzatuvchi koeffitsientlari bo‘yicha aniqlash;

VII bosqich – Sayyohlik jarayonlarini baholash materiallarini rasmiylashtirish.

Baholash ishlarini amalga oshirishning yuqoridagi bosqichlarini batafsil bayon etish mazkur tadqiqot vazifasiga kirmaydi, chunki u baholash faoliyatiga doir zamonaviy uslubiy materiallarda yetarlicha aks ettirilgan. Shu bilan birga, bizningcha, yakka tartibdagi hududlar nisbiy qiymatining tuzatuvchi koeffitsientlarini ishlab chiqish masalasini ko‘rib chiqishga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu munosabat bilan yakka tartibdagi tur-hududlar qiymatini hisoblashda tuzatuvchi nisbiy koeffitsientlar ko‘rsatkichlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$K_{i.otn.} = \frac{K_{i.abs.}}{K_{baz. abs.}}$$

Bu yerda **K_{i.nisb.}** – yakka tartibdagi sayyohlik obyektlari qiymat bahosini shakllantiruvchi muayyan omil bo'yicha nisbiy tuzatuvchi koeffitsient;

K_{i.abs.} – yakka tartibdagi sayyohlik obyektlari qiymat bahosini shakllantiruvchi muayyan omil bo'yicha absolyut tuzatuvchi koeffitsient;

K_{baz.abs.} – test (bazaviy) tur-hududlar qiymat bahosini shakllantiruvchi muayyan omil bo'yicha absolyut tuzatuvchi koeffitsient. Ushbu koeffitsient yuqorida ko'rib chiqilgan bazaviy (test) uchastkani tanlash usuliga qarab aniqlanadi. Bunda yakka tartibdagi yer uchastkasining qiymatini quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:

$$S_{yakk.} = S_{baz.} * K_{i.nisb}$$

Yuqorida keltirilgan yakka tartibdagi sayyohlik zonalari qiymatini aniqlash formulasi qiymat bahosiga faqat bitta omilning ta'sirini tavsiflovchi koeffitsientning qo'llanishini hisobga oladi. Bu bazaviy (test) va yakka tartibdagi yer uchastkasining qiymat bahosiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar nisbiy va absolyut xususiyatlarining o'zaro bog'liqligini tushunishni soddallashtirish uchun qilingan. Yalpi baholash ishlarini o'tkazishda yakka tartibdagi yer uchastkasining qiymat bahosini shakllantiruvchi «n» omillarning ta'sirini hisrbga oluvchi formula umumlashtirilgan tarzda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:


$$S_{yakk.} = S_{baz.} * K_{1\ i.nisb.} * K_{2\ i.\ nisb.} * \dots * K_{n\ i.\ nisb.}$$

MUHOKAMA

Yakka tartibdagi tur-hududlarining qiymat bahosini aniqlash bazaviy algoritmlarining ikkinchi guruhi ularning mavjud bo'lishi baholash ob'ektining o'ziga xos xususiyatlari bilan ham, baholash ishlarining maqsadli yo'nalishi bilan ham belgilanadigan qator kichik guruhlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib sayyohlik obyektlarini baholashda turli bazaviy algoritmlardan foydalanish mumkin, (1.3-rasm).

1.3-rasm.

Sayyohlik jarayonlarida tur-hududlarini baholashning turli bazaviy algoritmlarini shakllantirish sabablari.



Sayyohlik jarayonlarini baholashning yuqorida keltirilgan assosiy maqsadli yo'nalishi va bunda foydalilaniladigan baholash yondashuvlari barcha bazaviy algoritmlarni sakkizta assosiy guruhga birlashtirish imkonini beradi, (1-jadval).

1-jadval

Sayyohlik jarayonlarini tur-hududlar bo'yicha baholashning umumlashtirilgan bazaviy algoritmlari.

Tur-hududlarni baholashning asosiy bazaviy algoritmlari	Optimal qo'llash sohasi	Qiymatni baholash konsepsiysi
Daromadli yondashuvdan foydalan-gan holda tur-hududni ijaraga olish huquqlarining qiymatini aniqlash (1-son bazaviy algoritm)	Bir xil yuqori daromadli tur-hududlar	Sayyohlik zonalarni tizimli tartibga solish uchun bo'lgan huquqlar qiymatining funksiyasi sifatida undan olinadigan daromad
Qiyosiy yondashuvdan foydalangan holda tur-hududni ijaraga olish huquqlarining qiymatini aniqlash (2-son bazaviy algoritm)	Tur-hududlar ijara bozorining rivojlanganligiga erishish	Ijaraga olish qiymati bozor tomonidan belgilangan tur-hududlar qiyosiy ko'rsatkichlarining funksiyasi sifatida yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarining qiymati.
Xarajatli yondashuvdan foydalangan holda tur-hududlarni ijaraga olish huquqlarining qiymatini aniqlash (3-son bazaviy algoritm)	Yangidan o'zlashtirilgan past rentabelli yer uchastkalari	Undan foydalanish xara-jatlarining funksiyasi sifa-tida yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarining qiymati.
Daromadli yondashuvdan foydalan-gan holda tur-hududlarni ijaraga olish huquqilarini garovining qiymatini aniqlash (4-son bazaviy algoritm)	Yuqori talabga ega bo'lgan bir xil yuqori daromadli tur-hududlar	Ular daromadliligining funksiyasi sifatida tur-hududlarni ijaraga olish huquqlari garovining qiymati.
Qiyosiy yondashuvdan foydalangan holda tur-hududlarni ijaraga olish huquqilarini garovining qiymatini aniqlash (5-son bazaviy algoritm)	Tur-hududlarni ijarasi va kreditlar bozorining yuksak rivojlanishi	Ijara va garov kreditlari qiyosiy ko'rsatkichlarining funksiyasi sifatida tur-hududlarni ijaraga olish huquq-lari garovining qiymati
Daromadli yondashuvdan foydalan-gan holda yer uchastkasini ijaraga olish huquqilarini olib qo'yishda ko'rilgan zararning qiymatini baholash (6-son bazaviy algoritm)	Yuqori daromadli mumtoz qadimiy tu-hududlar sharoitida	Ijaraga olinadigan tur-hududlardan olinadigan daromad yo'qotilishining funksiyasi sifatida zarar qiymati
Qiyosiy yondashuvdan foydalangan holda tur-hududlarni ijaraga olish huquqilarini olib qo'yishda ko'rilgan zararning qiymatini baholash (7-son bazaviy algoritm)	Turizm-sayyohlik bozorining yuksak rivojlanishi	Zararga qarab qiymatning pasayishi qiyosiy ko'rsatkichlarining funksiyasi sifatida zarar qiymati

XULOSA

Asosiy bazaviy algoritmlarda qo'llaniladigan konseptual qoidalar baholash ishlari uchun maxsus axborot bazasini yig'ish va uni qayta ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini, yer resurslaridan foydalanishga doir moliyaviy hujjatlarni normal holatga keltirish, yerdan foydalanishning amaliy va qiyosiy ko'rsatkichlarini, ularning shakllanayotgan bozor qiymatini aniqlash zaruratini, yer resurslarining bahosini aniqlashga nisbatan turli matematik yondashuvlarni qo'llashning asoslilagini belgilab beradi.

REFERENCES

1. Kolmogorov V.L. Web – masterstva. M.:Piter 2001 g.
2. Bykov V. A. Elektronnyy biznes i bezopasnost. — M.: Radio i svyaz, 2000 g.
3. Butunjahon Turizm Tashkilotining 2010 - yil turizm sohasi rivojlanishi va uning kelajakdagi prognozi bo'yicha hisoboti. // www.unwto.org, 2010
4. „O'zbekturizm” MKning 2005 – 2012 – yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish dasturi
5. Durovich A.P. Организация туризма – СП.: «ПИТЕР» 2009. 320 b
6. Turkovskiy M. Маркетинг гостиничных услуг. Учебное пособие – М.: «ФиС» 2008. 296 b
7. Butko I.I. и другие. Туристический бизнес: Основы организации – М.: «ФиС» 2008. 384
8. Birjakov M.B. Введение в туризме. – СП.: «ПИТЕР» 2008. 230 b
9. Uolker Dzh.R. Введение гостеприимство. Зарубежнїй учебник. – M.: «ЮНИТИ - ДАНА» 2008. 86b
10. Sевастянов D.B. Основы странаведение и международного туризма. Учебное пособие. – M.: «Академия». 2008. 84 b
11. Efimova O.P. Экономика гостиниц и ресторанов. Учебник. – M.: «Новое знание» 2008. 142b
12. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston hukumatining rasmiy sayti
13. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti
14. <http://www.uzbektourism.uz> - „O'zbekturizm” MK rasmiy sayti
15. <http://www.unwto.uz> – BMTning Butunjahon turizm tashkiloti rasmiy sayti
16. <http://www.worldtravel.com>